

PIYER BURDI'YENING SOTSIOLOGIK KONSEPSIYASIGA KIRISH

Ergashev Mashrabxon Farxod o'g'li

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Sotsiologiya
yo'nalishi 2-kurs talabasi.*

Annotatsiya: *Bu maqolada mashhur fransuz sotsiologi Piyer Burdi'ye hayoti va ijodi, uning nazariyalari, asarlari haqida yoritib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Habitus, kapital, makon, sotsial stratifikatsiya, simvol, ijtimoiy kapital.*

Kirish: mashhur fransuz sotsiologi va antropologi Piyer Burdi'ye o'zining o'ziga xos asarlari, nazariyalari bilan zamonaviy sotsiologiyaning asosiy shaxslaridan biridir. U 1930-yil 1-avgustda Fransiyaning dengiz sohilidagi Deng viloyatida tug'ilgan. 2002-yil 23-yanvarda Parijda vafot etadi.

"Har bir ijtimoiy amaliyot, albatta, biror madaniy tizimga asoslanadi, ammo bu tizim jamiyatning eng muhim iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlariga ta'sir qiladi." degan edi Piyer Burdi'ye. Burdi'ye jamiyatdagi hokimiyat, madaniyat va iqtisodiyot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur tahlil qilgan.

Piyer Burdi'ye (Pierre Bourdieu) ijtimoiy nazariyat va sotsiologiyaning yetakchi olimlaridan biridir. Uning eng mashhur asarlaridan biri "Distinctions: A Social Critique of the Judgement of Taste" (1979) bo'lib, unda u jamiyatdagi tabaqaviy farqlarni va ijtimoiy baholarni tahlil qiladi. Piyer Burdi'yening sotsiologik konsepsiyasi ijtimoiy tuzilmalar va madaniy kapital shaxslarning xulq-atvori kabi yo'nalishlarga bo'linadi. Piyer Burdi'yening "habitus" va "makon" tushunchasini fanga kiritgan. U fanga kapital tushunchasiga faqat iqtisodiy jihatini emas, balki madaniy va ijtimoiy, simvolik kapital tushunchalarini kiritgan va bu katta yangilik bo'lgan edi.

Bundan tashqari Piyer Burdi'ye fransuz ijtimoiy fanlariga, sotsiologiya va antropologiya sohalarini rivojlantirishda o'ziga xos metodologiyani ishlab chiqdi. Burdi'yening sotsiologik nazariyasining asosiy e'tiborni ijtimoiy kapital tushunchasiga va ijtimoiy xulq-atvoriga ta'siriga e'tiborini qaratadi. Piyer Burdi'ye sotsiologiyada juda ko'plab yangiliklar yaratgan olim hisoblanadi. Jumladan simvolik zo'ravonlik tushunchasi, jamiyatda hukmron bo'lgan normativlar va qadriyatlar orqali jamiyatning pastki qatlamlarini boshqarish va boshqalar tomonidan bu hukmronlikni tan olishni anglatadi degan xulosani beradi. Piyer Burdi'ye sotsial stratifikatsiya nazariyasiga ko'ra, jamiyat qatlamlarga bo'lingan bo'lib, bu qatlamlar o'zining iqtisodiy va ijtimoiy resurslariga asoslanadi. Odamlar o'zlarining ijtimoiy mavqeyiga qarab, turli xil imkoniyatlarga ega bo'ladilar. Bu stratifikatsiya orqali Piyer Burdi'ye jamiyatdagi o'zgarishlarni va ijtimoiy farqlarni tushuntiradi. Piyer Burdi'ye sotsiologik konsepsiyasida asosiy rol ni "habitus" lar o'ynaydi. Ijtimoiy tuzilmalarni shakllantirishdagi asosiy vazifani bajaruvchidir. Qolgan qadriyatlar aynan habitus orqali aniqlanishini nazarda tutadi. Habitus bu individagi

odatlardir. Bu odatlar esa individagi qadriyatlarni shakllantirishini yoritib beradi Piyer Burdi'ye.

Metod va materiallar. Burdi'ye konsepsiyasining ilmiy qarashlari ko'plab sohalarni qamrab olgan, ammo eng ko'p ijtimoiy stratifikatsiya, makon va habitus edi. Uning asarlari va metodlari, nazariyalari, konsepsiyalaridan ko'plab olimlar foydalangan va foydalanib kelishmoqda, jumladan britaniyalik sotsiolog Jon Tomson o'zining asarlari va nazariyalarida Piyer Burdi'yening maydon va habitus nazariyalarini qo'llagan. Polshalik sotsiolog Zygmunt Bauman ham Piyer Burdi'ye nazariyalari va asarlaridan foydalangan. Michel Foucault va David Swartz kabi fransuz va boshqa jahon olimlari tomonidan e'tirof etiladi. Piyer Burdi'ye hayoti davomida juda ko'plab asarlar yozgan ularning eng mashhurlaridan biri "Les Étudiants et la Culture " ta'lim tizimi va madaniy kapitalning ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishdagi roli haqida yozgan asari mashhurdir. Bundan tashqari "La Misère du Monde" jamiyatdagi ijtimoiy marginalizatsiya va ijtimoiy tengsizlikni chuqur o'rgangan va tahlil qilgan asar sanaladi.

Xulosa: qilib aytganda Piyer Burdi'ye hayoti va ijodi sotsiologiya sohasida ilmiy yangiliklar kiritishda muhim sababchilardan biri bo'lgan olim hisoblanadi. Piyer Burdi'ye, zamonaviy sotsiologiyaning eng muhim shaxslaridan biri bo'lib, uning ilmiy merosi ijtimoiy tuzilmalar, kuch va madaniyat o'rtasidagi aloqalarni chuqur o'rgangan. Uning "kapital", "habitus" va "maydon" kabi tushunchalari, ijtimoiy stratifikatsiya va tengsizlikni tushinishda yangi yondoshuvlarni yaratishga sabab bo'ldi. Burdi'ye jamiyatdagi kuchlarning ko'rinmas shakllarini, ayniqsa simvologik kuchni tahlil qilib, madaniyat va ta'lim tizimlarining ijtimoiy farqlarni qanday qayta ishlab chiqarishini ko'rsatdi. Uning asarlari, ijtimoiy nazariya va amaliyotda hozirgi kunga qadar katta ta'sirga ega bo'lib, hozirgacha foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1 Piyer Burdi'yening hayoti va ijodiga bag'ishlangan vikipediya manbalaridan foydalanildi.

2 Piyer Burdi'yening bir qancha asarlari va nazariyalaridan foydalanildi, jumladan:

1. La Distinction: Critique Sociale du Jugement (1979) – Burdi'yening madaniy tanlovlar va ijtimoiy sinflar o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilgan eng mashhur asari.

2. Les Héritiers: Les Étudiants et la Culture (1964) – Ta'lim tizimi va madaniy kapitalning ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishdagi roli. La Misère du Monde (1993) – Jamiyatdagi ijtimoiy marginalizatsiya va tengsizliklarni chuqur tahlil qilgan asar

3. Le Sens Pratique (1980) – "Habitus" tushunchasini kengaytirgan va odamlarning kundalik hayotdagi amaliyotlarini o'rgangan asar.